

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF GAVHARSHOD BEGIM IN ODIL YOQUBOV'S NOVEL "ULUGBEK'S TREASURE"

Madina Bazarboyeva*1st-year basic doctoral student**Nukus State Pedagogical Institute*bazarboyevamadina@gmail.com*Nukus, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Odil Yoqubov, "Ulugbek's Treasure", Gavharshod Begim, historical-biographical novel, character speech, comparative analysis.

Abstract: This article analyzes the artistic interpretation of the image of Gavharshod Begim in Odil Yoqubov's novel "Ulugbek's Treasure." The study examines how the political and psychological portrait of the historical figure is constructed in the novel, the author's position toward her, and the internal conflicts of the character. The research employs textual and comparative analysis methods.

Received: 08.03.26**Accepted:** 09.03.26**Published:** 10.03.26

ODIL YOQUBOVNING "ULUG'BEK XAZINASI" ROMANIDA GAVHARSHOD BEGIM OBRAZI TALQINI

Madina Bazarboyeva*1-kurs tayanch doktoranti**Nukus davlat pedagogika instituti*bazarboyevamadina@gmail.com*Nukus, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Odil Yoqubov, "Ulug'bek xazinasini", Gavharshod begim, tarixiy-biografik roman, qahramon nutqi, qiyosiy tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida Gavharshod begim obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda tarixiy shaxsning siyosiy va psixologik qiyofasi qanday shakllantirilgani, muallifning unga nisbatan pozitsiyasi va obrazning ichki ziddiyatlari ochib beriladi. Tahlil jarayonida matnshunoslik va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanildi.

ТРАКТОВКА ОБРАЗА ГАВХАРШАД-БЕГИМ В РОМАНЕ ОДИЛА ЯКУБОВА «СОКРОВИЩА УЛУГБЕКА»

Мадина Базарбоева

Докторант 1-го курса (базовой докторантуры)

Нукусский государственный педагогический институт

bazarboyevamadina@gmail.com

Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Одиль Якубов, «Сокровище Улугбека», Гавхаршод бегим, историко-биографический роман, речь персонажа, сравнительный анализ.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретация образа Гавхаршод бегим в романе Одиля Якубова «Сокровище Улугбека». Рассматривается, каким образом в произведении формируется политический и психологический облик исторической личности, раскрывается авторская позиция по отношению к ней и внутренние противоречия образа. В процессе исследования использованы методы текстологического и сравнительного анализа.

Kirish. Yigirmanchi asrning 40-yillariga kelib an'anaviy tarixiy roman o'z o'rnini tarixiy-biografik romanga bo'shatib bera boshladi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani 1970-1973- yillarda yozib tugatilgan o'zbek adabiyotining muhim tarixiy-badiiy asarlaridan biri bo'lib, unda buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug'bek hayoti, uning ilmiy merosi, fojiali taqdiri tasvirlanadi. Tarixiy romanchilik haqida N.Xudoyberganov Nazir Safarov ijodiga bag'ishlangan "Vijdon da'vati" kitobida shunday deb yozgan: "Tarixiy asarning bosh qahramoni qilib... Belinskiy aytganidek, yirik tarixiy shaxs olinib, ulug'vor burilishlarni, katta o'zgarishlarni qamrab oladigan voqealar fonida ochib berilishi kerak". Shu an'anaga muvofiq Odil Yoqubov asarni ikki qismga ajratadi: birinchi qism Ulug'bek hayotining siyosiy va ruhiy kechinmalarini, ikkinchisi esa Ali Qushchining ustozining ilmiy merosini saqlab qolish yo'lidagi harakatlarini ifodalaydi.

Asar yaratilgan davr milliy o'zlikni anglashga intilish harakatlari jadal rivojlanayotgan, tarix sahifalari qayta o'qilayotgan bir palla edi. Biroq hali tarix hamma haqiqatlarini ro'y-rost ko'rsatmagan edi. Shunday paytda Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanini yozgani jasorat edi. Asarda ilm va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyat, ilm-fanga fidoyilik, xiyonat va sadoqat mavzulari yoritiladi. Asar markazidagi asosiy g'oya — haqiqiy boylik bu ilm va ma'naviy merosdir. Shuningdek, romanda ayollar obraziga ham alohida urg'u beriladi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshod bегim obrazi o'quvchida turli xil shubhalarni va ikkilanishlarni yuzaga keltiradi. Asar bosh qahramonining onasi bo'lgan Gavharshod bегim obraziga asarning

hech bir o'rinda batafsil to'xtalib o'tilmagan, negaki malika haqidagi tarixiy haqiqatlar, manbalar yetarli darajada bo'lmagan. Bu hol ayrim kitobxonlarda yozuvchining badiiy talqini va tarixiy asoslar o'rtasidagi nisbat haqida savollar tug'dirishi mumkin. Ushbu maqolada romandagi Gavharshod begim obrazi talqini, uning tarixiy manbalar bilan munosabati hamda yozuvchining badiiy yondashuvi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tarixiy roman janri va uning poetik xususiyatlari o'zbek adabiyotshunosligida keng o'rganilgan masalalardan biridir. Xususan, Vijdon da'vati asarida N. Xudoyberganov tarixiy romanning bosh qahramoni yirik tarixiy shaxs bo'lishi, u muhim ijtimoiy burilishlar va tarixiy o'zgarishlar fonida ochilishi lozimligini ta'kidlaydi.[5,23] Bu nazariy qarash 1970-yillar tarixiy romanchiligida ham yetakchi tamoyil sifatida namoyon bo'lgan.

1970-yillar tarixiy romanlarida ilmparvar hukmdor obrazi progressiv kuch sifatida, diniy-mutaassib qatlam esa reaksiy kuch sifatida talqin qilinganligi kuzatiladi. Mazkur ideologik model ko'plab tarixiy asarlarda obrazlar tizimini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan Ulug'bek xazinasi romanidagi Gavharshod begim obrazi ham davr mafkuraviy talablari ta'sirida shakllangani ehtimoli mavjud.

Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xoslik masalalari G'. Murodov tadqiqotlarida ham yoritilgan. Olim 60–80-yillarda yaratilgan ayrim tarixiy romanlarda ideologik yondashuv kuchli bo'lgani, ba'zi obrazlarda badiiy yaxlitlik yetishmaganini, qahramonlarning ichki ziddiyatlari yetarli darajada ochilmaganini qayd etadi.[3,30] Bu holat tarixiy shaxslarning biryoqlama talqin qilinishiga sabab bo'lganini ko'rsatadi.

Mustaqillik davrida yaratilgan tarixiy romanlarda esa tarixiy shaxslarga nisbatan yondashuv sezilarli darajada o'zgargani kuzatiladi. Jumladan, Pirimqul Qodirov "Ona lochin vidosi" , Muhammad Ali "Ulug' saltanat" hamda Shahodat Isaxonova "Gavharshod begim" asarlarida Gavharshod begim obrazi nafaqat davlat arbobi, balki ona, ayol va buvi sifatida ko'p qirrali hamda tarixiy manbalarga yaqin holda tasvirlanadi. Shu bois "Ulug'bek xazinasi" romanida Gavharshod begim obrazining badiiy talqini, uning ideologik asoslari hamda tarixiy haqiqat bilan munosabati masalasini alohida ilmiy tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotda badiiy matnni kompleks o'rganishga qaratilgan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, "Ulug'bek xazinasi" romanidagi Gavharshod begim obrazini tahlil qilishda matnshunoslik va struktural-tahliliy metod asos qilib olindi. Obrazning syujet-kompozitsion tizimdagi o'rni, narrativ ifodalanish shakllari hamda tasvir vositalari shu metod orqali o'rganildi.

Shuningdek, obraz talqinining davr mafkurasi bilan bog'liqligini aniqlash maqsadida tarixiy-qiyosiy metod qo'llanildi. Ushbu metod yordamida sovet davri tarixiy romanchiligi hamda mustaqillik davrida yaratilgan asarlardagi Gavharshod begim obrazi o'zaro solishtirildi.

Bundan tashqari, ayol hukmdor obrazining patriarxal tafakkur doirasida talqin qilinishini aniqlashda gender yondashuvi, shuningdek, 1970-yillar tarixiy romanchiligiga xos ideologik modelni ochib berishda ideologik-tahliliy metoddan foydalanildi.

Natijalar. Asarda Gavharshod begimning ishtiroki ko'p hollarda syujet markazida bo'lmagan bo'lsa-da, uning mavjudligi va harakatlari voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat yozuvchining ayol obrazlariga nisbatan murakkab va nozik yondashuvini ko'rsatadi.

Roman voqealarida Gavharshod begim ko'proq tahliliy holatda, ichki monologlar va boshqa qahramonlarning fikrlari orqali ochiladi. U har bir harakatini siyosiy vaziyat, davlat manfaatlarini va o'z o'g'lining taqdiri o'rtasida muvozanat saqlashga urinib qiladi. Shu bois, asarda u keskin salbiy obraz sifatida emas, balki tarixning murakkab ijtimoiy-siyosiy holatida yashagan va shu muhit taqozosiga ko'ra keskin qarorlar qabul qilgan ayol timsolida talqin etiladi. Gavharshod begimning Ulug'bekka bo'lgan munosabati romanda o'ta ziddiyatli, ammo tub mohiyatda ona mehridan tug'ilgan. U o'g'lining ilm-fan yo'lini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, ayni paytda davlatning barqarorligi yo'lida uning haddan tashqari erkin qarashlaridan xavotirda bo'ladi. Ulamolar bilan ziddiyat, sayidlarning noroziligi, davlat tebranishi – bularning barchasini u o'g'lining haddan ziyod ilmparastligi bilan bog'laydi.

Asarda Gavharshod begim obrazi to'g'ridan-to'g'ri muallif tavsifi orqali emas, balki Mirzo Ulug'bekning subyektiv nigohi orqali beriladi. Bu esa obrazni narrativ filtr orqali shakllangan qiyofa sifatida ko'rsatadi.

“Ha! Bu mash'um Xuroson yurishi uning boshiga ko'p savdolar soldi. Boshda uni bu yurishga da'vat etgan amirlar esa zafariyatsiz urushdan keyin undan yuz o'girib, zimdan choh qazish payiga tushdilar. Lekin ne chora? Otasi Shohruh Mirzo vafotidan so'ng – pokiza ruhi ravzai rizvonda masrur bo'lg'ay! – Volidai mehriboni Gavharshod begimning kirdikorlari tufayli Hirot saroyida nizo-nifoq avj olib, beqiyos saltanat xavf ostida qoldi Mirzo Ulug'bek ko'zini yumib, boshini sekin chayqadi. U volidayi mehriboniga nisbatan ko'nglida iliq bir tuyg'u uyg'otishga harakat qildi. Lekin ko'z oldiga uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'ylak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog' bir xotin keldi. U qosh-ko'zlari qop-qora, qiyg'ir burun, xushsurat xotin bo'lsa ham, farishtasi yo'q, chehrasi sovuq ayol edi. Bobosi Amir Temur Ko'ragoniy shahodat sharobini ichgandan beri Gavharshod begim bu kiyimni, ko'k ipak ko'ylagi bilan ko'k ro'molini tashlamas, go'yo sohibqiron uchun to o'lguncha motam tutgan, shu bilan bu dunyo ishlaridan qo'l yuvib, u dunyo g'amiga o'tgan edi. Hayhot! Amir Temur ollo rahmatiga yo'l tutib, Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o'tiribdi hamki, Gavharshod begim toj-u taxtni o'z qo'lga oldi. Saroyni johil gumrohlar ila Xoqoni Saidni ko'rolmaydigan badxohlarga to'ldirib yubordi. Hirot fisqi fujur uyasiga aylandi. Shohruh Mirzoni chalg'itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodalar orasiga nizo tushirgan, suyuqli nabirasi Alouddavla bilan Abdullatifni bir-

biriga qayrab solib qatl-u qirg'in chiqargan ham, evoh, shu volidayi mehriboni Gavharshod begim bo'ldi... Bu fitna-yu xunxorliklardan ish chiqmagach, o'z o'g'li Mirzo Ulug'bekka "shohi sharir" degan nom taqib, shahzoda Abdullatifni qayrab soldi. Shahzoda esa... Naqshbandiyalar jamoasining rahnamosi janob Nizomiddin Xomush yanglig' din peshvolarining domiga ilinib qoldi. O, xurofot botqog'iga botib qolgan bu johil ulamolar! Ilgari, Mirzo Ulug'bek taxtda muqim o'tirgan mahalda ular tishlarini tishlariga qo'yib bo'lsa ham chidab yurishgan edi. Lekin Mirzo Ulug'bek Xuroson yurishidan mag'lub qaytdi hamki, darhol bosh ko'tarib chiqishdi. Mirzo Ulug'bek inongan lashkarboshilar esa... Yuksak rutba, shon-shavkat va zeb-ziynatga o'ch bu amiru umaro esa... faqat taxt sohibi kuchda turgan mahaldayoq qo'l qovushtirib turadi. Saltanat sal tebransa, darhol yuz o'giradi. Kimningki qilichi o'tkir – ular shunga xizmat qiladi!"[6,23]

Bu tasvirda Gavharshod begim an'anaviy "mehribon ona", "oqila malika" obrazidan butunlay farq qiladi. U fitnakor, makkor va hokimiyatparast ayol sifatida gavdalanadi. Unga nisbatan ishlatilgan frazalar — "fitna-yu xunxorliklardan ish chiqmagach", "taxtni o'z qo'lga oldi", "badxohlarga to'ldirib yubordi" — barchasi Gavharshod begimni siyosiy intriganing markazida turgan shaxs sifatida ifodalaydi.

Muallif Gavharshod begimning tashqi ko'rinishini juda batafsil tasvirlaydi: "uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'ylak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'ldan tasbehi tushmaydigan". Bu holat uni dindor, sadoqatli, sokin va hurmatli ayol sifatida ko'rsatadigandek tuyuladi. Biroq ichki mohiyati butunlay boshqacha: muallif uni chehrasi sovuq, farishtasi yo'q, salobatli, ammo rahmsiz ayol sifatida tasvirlaydi. Bu esa tashqi va ichki ziddiyat orqali obrazni yanada murakkablashtiradi. Parchada Gavharshod begim faqatgina oila a'zosi sifatida emas, balki davlat siyosatiga bevosita aralashadigan kuchli arbob sifatida aks ettirilgan. U Hirotdagi saroy hayotini to'liq boshqaradi, "Shohruh Mirzoni chalg'itib, sayidlarni qatl qildirgan", "shahzodalar orasiga nizo tushirgan", "saltanat xavf ostida qoldi" kabi iboralar orqali u hukmronlik qiluvchi kuch sifatida taqdim etiladi. Bu esa tarixiy haqiqatga ham muayyan darajada mos tushadi: Gavharshod begim o'z davrida siyosiy jarayonlarga faol aralashgan shaxs bo'lgan. Bu tasvirda ayol kishi hokimiyat tepasiga chiqqanda, u muruvvat emas, fitna va kuch orqali boshqarishga urinadi, degan tushuncha ilgari surilgan. Gavharshod begim o'z o'g'liga qarshi chiqqani, nabiralari orasida adovat tarqatgani, Ulug'bekka "shohi sharir" degan nom taqib, Abdullatifni unga qarshi qayragani — bularning barchasi unga nisbatan keskin, salbiy munosabatni ochiq ifodalaydi. Muallifning uslubi sezilarli darajada istehzo va kinoyaga boy: "volidai mehriboni", "go'yo motam tutgan", "bu dunyo ishlaridan qo'l yuvib" kabi iboralar orqasida aslida salbiy mazmun yashiringan. Bu badiiy usul Gavharshod begim obraziga yana bir murakkablik darajasini qo'shadi — u tashqi diniy ko'rinish ortida siyosiy manipulyatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs sifatida ko'rsatiladi.

Parchada Gavharshodbegim — oʻz davrining kuchli, ammo murakkab va ziddiyatli ayol obrazidir. Muallif uning siymosida hokimiyat uchun kurashgan, saltanat saroyini fitnalar domiga solgan, maqsadi yoʻlida hatto yaqinlariga qarshi chiqa oladigan, siyosiy jihatdan faol va oʻta xatarli shaxsni yaratgan. Bu obraz tarixiy shaxsning badiiy talqini sifatida oʻquvchida muayyan munosabat uygʻotadi — hurmat, qoʻrquv, tanqid va hayrat aralashgan murakkab tuygʻularni.

Shu bilan birga, parcha orqali Gavharshod begimning taʼsirchanligi va kuchi ham seziladi. Garchi bu yerda u bevosita voqealar markazida boʻlmasa-da, uning harakatlarining taʼsiri, ulkan saltanat hayotiga qanday taʼsir qilgani boshqa qahramonlarning fikrlari orqali ochiladi. Mirzo Ulugʻbekning iztiroblari – aynan onasi atrofidagi voqealarning ogʻir oqibatidir. Bu yerda Gavharshod begim faol emas, ammo u — ramziy markaz, boshqa qahramonlarning qarorlarini, fikrlarini, hatto ichki dunyolarini belgilab beruvchi mohiyat boʻlib qoladi.

Ulugʻbek onasiga nisbatan murakkab tuygʻular ogʻushida – u uni ayblaydi ham, himoya ham qiladi, uni uzoqlashtirgan ham, mehrini inkor eta olmaydi. Bu esa Gavharshodbegim obrazini bir yoqlama emas, balki koʻp qirrali, ichki ziddiyatlarga toʻla murakkab shaxs sifatida ochadi.

“Ulugʻbek xazinasi” romani orqali Odil Yoqubov Gavharshod begim obrazini nafaqat tarixiy voqealarning bir boʻlagi, balki oʻz zamonasida taqdirini tarixning shafqatsiz toʻlqinlari bilan uygʻunlashtirishga majbur boʻlgan ayol sifatida koʻrsatadi. Mustaqillikdan oldin hali tarixiy haqiqiyatlar aniq boʻlmagan bir pallada yozilgani sababli ham, Gavharshod begim obrazi biryoqlama, yaʼni hokimiyat bilan aloqador, davlat boshqaruvida bevosita ishtirok qilgan malika sifatida hissiz va sovuq qilib tasvirlanadi.

Muhokamalar. Istiqolol davrida yaratilgan asarlarda esa Gavharshod begim obraziga nisbatan munosabat va yondashuvlarning mutlaqo aksini koʻrishimiz mumkin. Masalan, Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi”, Muhammad Ali “Ulugʻ saltanat”, Shahodat Isaxonova “Gavharshod begim” romanlarida esa Gavharshod begim nafaqat davlat arbobi, balki ona, ayol, buvi sifatida har tomonlama ochiq va tarixiy faktlarga asoslangan holda yoritiladi. Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” asarida Gavharshod begim obrazida sovet davri tarixiy tafakkuri aks etgan. Oʻsha davrning keskin hukmlari va tarix haqiqatiga koʻproq urgʻu berilganini asarni oʻqish jarayonida sezilib turadi. Pirimqul Qodirov “Ona lochin vidosi” romanini 2001-yilda tarixiy shaxslar hayoti qayta oʻrganilayotgan pallada yozilgani bilan ahamiyatlidir. Odil Yoqubovdan farqli oʻlaroq Pirimqul Qodirov Gavharshod begim va Mirzo Ulugʻbek munosabatlariga alohida urgʻu berib, uni mehribon, farzandiningkelajagi haqida qaygʻuradigan mushtipar ona sifatida tasvirlaydi. Mazkur talqin tarixiy manbalarga yaqinligi hamda psixologik asoslanganligi bilan ajralib turadi. “Ona lochin vidosi” romanida Mirzo Ulugʻbekning onasi Gavharshodbegimga atab yozgan xatida uning bor his-tuygʻulari juda chiroyli ifodalab berilgan: “Hazrat onajon, sizni sogʻinganmen. Diydoringizga tashna boʻlib, shu maktubni yoʻllamoqdamen, degan soʻzlarini oʻqiganda

,begimning ko'zlariga birdan yosh keldi. Avvalo, mendan gunoh o'tgan bo'lsa, tazarru qilamen, kechiring! Sizni ranjitib bo'lsa ham, gumroh o'g'lim Abdulatifni o'z yonimga olib keldim. Men ota bo'lganligim uchun uning kafilini zimmamga olib, tarbiyat qilishga majburmen. Abdulatif chetqoq joyda mushkilotlar bilan olishib chiniqishi uchun uni Balxda qoldirmoqchimen. Endi Samarqandga qaytishdan oldin siz bilan ko'rishish uchun Hirotga bormoqchi bo'ldim. Ammo Mirzo Alouddavla Hirot harbiy holatda ekanini aytib, borishimga moyillik ko'rsatmadi. Men suyangan eng ulkan tog' sohibqiron bobomdan so'ng xoqoni Sayyid otam bo'lganini endi astoydil his qilmoqdamam. Meni ellik yildan balo-qazodan asrab yurgan otam endi yo'q. Men suyangan yana bir tog'-siz onam hazratlari ekaningizni birga safar qilganimizda aytgan edim. Endigi umidim shulki, sizni bir vaqtlardagidek Amudaryo bo'yida kutib olsam..."[4,88] Ushbu parchada hukmdor o'g'ilning onasiga munosabati hurmat, muhabbat va cheksiz mehr asosiga qurilganini isbotlab beradi. Xatning "Hazrat onajon" deb boshlanishi Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshod begimga nisbatan hurmati cheksizligi ifodasi bo'lib, "suyangan yana bir tog'-siz onam hazratlari" deb xatning yakunlanishi Gavharshod begimning Mirzo Ulug'bekka nafaqat ona sifatida, balki davlat arbobi va dono maslahatchi sifatidagi rolini aks ettirgan.

Muhammad Alining "Ulug' saltanat" epopeyasining 4-kitobi Shohrux Mirzo va Gavharshod begimga bag'ishlangan. Epopeyaning 4-kitobi 2013- yilda yozib tugallangan bo'lib, unda "Ulug'bek xazinasi" romanida biryuqma tasvirlangan Gavharshod begim obrazi batafsil va tabiiy yoritib beriladi. "Ulug' saltanat" romanidagi "Podsho kelin deb e'zozlanadigan aql-idrokli, tuyg'ungina Gavharshod begim ham husn-u malohatda tengsiz, ko'rk-u chiroyda benazir"[2,45], "G'iyosiddin Tarxonning qizi Gavharshod begim bo'lib, yerga ursang, osmonga sapchiydigan sho'x qiz edi"[2,49] kabi tasvirlar uning shaxsiy sifatlarini ochib berishda mahorat bilan qo'llangan.

Bundan ko'rinib turibdiki, "Ulug'bek xazinasi" romanida Gavharshod begim obrazi davr mafkuraviy modeli ta'sirida shakllangani kuzatiladi, bunga asosiy sabablardan biri siyosiy tuzum bo'lsa, ikkinchisi ishonchli manbalarning kamligi hisoblangan. Demak, sovet davri tarixiy romanchiligida Gavharshod begim obrazi ko'proq siyosiy faol va keskin xarakter sifatida talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik davri asarlarida uning ona, ayol va davlat arbobi sifatidagi ko'p qirrali tabiati yanada chuqur ochib berilgan. Bu esa tarixiy tafakkur evolyutsiyasi hamda badiiy yondashuvdagi paradigmatic o'zgarishlardan dalolat beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Ulug'bek xazinasi" romanida Gavharshod begim obrazi sovet davri tarixiy-badiiy tafakkuri mahsuli sifatida shakllangan murakkab va ziddiyatli siymo sifatida talqin etiladi. Muallif uni nafaqat siyosiy intriga markazidagi shaxs, balki tarixiy jarayonlar bosimi ostida qaror qabul qilgan ayol sifatida ko'rsatadi. Shu jihatdan obraz tarixiy shaxsning

badiiy reinterpretatsiyasi sifatida e'tiborga loyiqdir. Shu tariqa roman sovet davri tarixiy tafakkurining estetik modeli doirasida shakllangan badiiy konsepsiyani namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isaxonova Sh. Gavharshod begim. – Toshkent: Ma'rifat bitiklari, 2023.
2. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2013. 45-49-b
3. Murodov G'. Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi muammolari: DSc diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 27–30-b.
4. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 88b
5. Xudoyberganov N. Vijdon da'vati. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – 143–144-b.
6. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2024. – 23-b.